

## AYRIM ARXAIK GIDROGRAFIK ATAMALARNING TOPONIMLAR YASASH XUSUSIYATLARI (JANUBIY O‘ZBEKISTON TOPONIMLARI MISOLIDA)

**Odil To‘xtamishovich Begimov**

Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti O‘zbek tili va adabiyoti kafedrasini mudiri,  
filologiya fanlari doktori  
[begimovodil@mail.ru](mailto:begimovodil@mail.ru)

### ANNOTATSIYA

Janubiy O‘zbekiston toponimlarining tadqiqi tarkibida ko‘pgina gidrografik xarakterdagi arxaik lug‘aviy birliklarning saqlanib qolganligini ko‘rsatadi. Bu lug‘aviy birliklar nom ijodkorlari bo‘lgan xalqlarning tillariga tegishlidir. Maqolada o‘zining lisoniy xususiyatlariga ko‘ra eroniy tillarga tegishli bo‘lgan gidrografik xarakterdagi arxaik lug‘aviy birliklarning toponimlar yasashdagi ishtiroki masalasi tadqiq etilgan.

**Kalit so‘zlar:** gidrografik, gidronim, toponim, arxaik, lug‘aviy birlik, topoformant.

### TOPONYM-FORMING CHARACTERISTICS OF SOME ARCHAIC HYDROGRAPHIC TERMS (IN THE EXAMPLE OF TOPONYMS OF SOUTH UZBEKISTAN)

#### ABSTRACT

The study of the toponyms of South Uzbekistan shows that many archaic lexical units of a hydrographic nature have been preserved. These lexical units belong to the languages of the peoples who created the name. The article investigates the issue of the participation of archaic lexical units of a hydrographic nature, belonging to Iranian languages, in the creation of toponyms.

**Keywords:** hydrographic, hydronym, toponym, archaic, lexical unit, topoformant.

#### KIRISH

Insonlar boshqa geografik obyektlar qatori o‘zlari yashagan joylarda mavjud turli xil suv havzalarini ham nomlaganlar. Ularni nomlashda o‘z tillarida iste‘molda bo‘lgan gidrografik tushunchalarni ifodalovchi so‘z va atamalardan foydalanishgan. Gidronimalarni hosil qiluvchi bunday lug‘aviy birliklar davriy jihatdan o‘zaro farq qilib, ular



lisoniy jihatdan ham o‘zgarib borgan. Ular etimologik jihatidan turli tillarga mansub bo‘lishi mumkin. Bunday nomlarning tarixiy-lisoniy tadqiqi ularning aksariyati kelib chiqishiga ko‘ra qadimgi eroniy tillarga tegishli lug‘aviy birliklardan tashkil topganligini ko‘rsatdi.

Toponimlar ustida olib borilgan lisoniy tadqiqotlar ularning tarkibida gidrografik xarakterdagi rud, daryo, shoh, chashma, obgoh, obdeh, guzar, dahna//dahana, sardoba, xas//xos//qas, jan//jon//jom//shon, dak//tak, arna// orna//anna, jo‘y, jo‘ybor, ob//ov//of, sharra, shovar// shovva, sharshara, girdob kabi so‘z va atamalar mavjudligini tasdiqlaydi.

## ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Mavzuni nazariy jihatdan yoritish va asoslash uchun tarixchi olimlaridan V.V. Bartold [1], R.G. Mukminova [2], O.D. Chexovich [7], H. Hasanov [8], Narxashiy [4], tilshunos olimlardan E. M. Murzayev [3], T.Nafasov [5], A.L.Xromov [6]larning ishlariga tayanildi.

Tadqiqot metodologiyasining asosini tilshunoslikda qo‘llaniladigan ma‘lum bir tarixiy-ijtimoiy jarayondagi barcha hodisalar tarixiy va ijtimoiy voqelikdan ajralmagan holda talqin qilish tashkil etadi.

Tadqiqotning ilmiy-nazariy asoslari zamonaviy tilshunoslikning onomosologiya sohasida qo‘llaniladigan ilmiy fikrlarni tahlil qilish usullaridan iborat. Shuningdek, toponimlarning lisoniy tadqiqi umumiylik va xususiylik, mohiyat va hodisa, shakl va mazmun birligidan iborat dialektik qonuniyatlarga asoslanadi.

Asosiy tadqiqot usuli sifatida qiyosiy-tarixiy, qayta tiklash, tuzilish va shakllanishiga ko‘ra tahlil qilish, til faktlarini solishtirishdan foydalanilgan.

## NATIJALAR VA MUHOKAMA

O‘zbekiston toponimlari tarkibida uchraydigan gidrografik atamalardan biri “jon” va uning fonetik varianti “jom” hisoblanadi. Toponimlar tarkibida saqlanib qolgan bu formantlarning asli sug‘dcha “jan” so‘zi bo‘lib, u “kanal, buloq, suv manbai” ma‘nolariga ega. Bu so‘zning fonetik varianti -jon formanti orqali qadimgi Sug‘d va Ustrushanda suv havzalari nomlari yasalgan [6,19]. O‘rta asrlarda Movarounnahrda -jon komponenti orqali yasalgan ko‘pgina yirik ariq, anhor nomlari mavjud bo‘lgan: Buzmajon, Somjon, Xonjon, Burjon, Ruyjon, Sanbukjon, Armijon, Yirjon, Kumarjon, Sarmijon. Janubiy O‘zbekiston hududida ham -jon formanti orqali yasalgan gidronimlar uchraydi: Sherjon, Navjon, Xonjon va boshqalar. Eronshunos A.L.Xromov –jan formanti to‘g‘risida quyidagi fikrlarni qayd etadi: “ I. Makvart fikricha Abarjon –



“yuqori kanal”, Asangjon – “toshli buloq”, Ro‘yjon – “mis kanal”, Sumbukjon – “qayiq shaklidagi kanal”, Somjon – “qora ko‘l” ma‘nolarini beradi [6,14]. Shuningdek, I.Makvart toponimlarning arab manbalarida yozilishiga asoslanib, balki “jan” so‘zini “xan” deb o‘qish to‘g‘riroq bo‘lar, o‘shanda uni o‘rta fors tilidagi “xon”, “xonik” (buloq) so‘zi bilan bog‘lash mumkin bo‘lardi, degan fikrni ham ilgari surgan. Lekin ko‘pgina manbalarda, jumladan, Narshaxiyning “Buxoro tarixi” kitobida ham -jan, -jon formantli joy nomlari keltirilganligi uni shu shaklda o‘qish to‘g‘riligini ko‘rsatadi. Undan tashqari, O‘zbekistonning hozirgi toponimiyasida ham -jon formantli joy nomlarining uchrashi uni to‘g‘riligini tasdiqlaydi. Jan~jon so‘zining so‘nggi davrlarda qo‘llanish va ma‘no chegarasi kengaygan. U mahalliy tillarga, jumladan, o‘zbek tiliga o‘zlashib, uning -jom varianti ham vujudga kelgan. Keyingi davrlarda jan~jon formatining ma‘no doirasi kengayib, kanal, buloq ma‘nolaridan tashqari jilg‘a, daryo, suv ma‘nolariga ham ega bo‘lgan.

Surxondaryo viloyatining Boysun tumanida Dahnajom nomli qishloq mavjud. Tuzilishi dahna+i+jom - izofa orqali bog‘langan so‘z birikmasi shaklida: dahna~dahan(dahana) – og‘iz; ko‘chma ma‘noda geografiyaga xos atama sifatida tor soy og‘zi, dara; jom~jon~jan - kanal, buloq, suv manbai [6,14]. Dahnajom – suv oqadigan tor dara, og‘iz. Bu nom dastlab, gidrografik obyekt nomi sifatida vujudga kelgan bo‘lib, keyinchalik qishloq nomiga asos bo‘lgan, ya‘ni gidronimdan oykonim hosil bo‘lgan.

Shuningdek, Sherobod tumanida Mayjon qishlog‘i mavjud. Nom tuzilishiga ko‘ra may+jon shaklidagi qo‘shma so‘z. U lug‘aviy asoslariga ko‘ra eroniy tillarga tegishli. Tarkibidagi -jon komponentining o‘zgarganligi shuni ko‘rsatadi. T. Nafasovning fikricha, nom turkiy (moy) va eroniy (jon) so‘zlaridan tashkil topgan gibrid nom. Moy~boy~bay - so‘zi gidronimiyada ulug‘, muqaddas ma‘nolarini beradi [5,120]. Jon~jan - buloq, suv manbai. Moy so‘zi ikkinchi bir ma‘no kasb etishi, ya‘ni u moy~moyi~mohi - baliq so‘zidan kelib chiqqan bo‘lishi ham mumkin. Moyjon<mohijon - baliqli, balig‘i ko‘p bo‘lgan jilg‘a, suv. Toponimni tashkil qilgan ikkala komponent ham davr o‘tishi bilan shakliy o‘zgarishga uchragan. Shuning uchun uni izohlashda turli variantlarga duch kelish, tabiiy.

Novjon (Sherobod tumani, qishloq) toponimi ham eroniy tillarga xos lug‘aviy birliklardan tashkil topgan. Nav - yangi, jon - ariq, jilg‘a. Novjon - yangi qazilgan suv manbai. Bu nom shu hududda mavjud bo‘lgan boshqa bir suv havzasi, ariqqa nisbat berib nomlangan bo‘lishi mumkin. Demak, toponim tarkibida –jon komponentining mavjudligi uning dastlab gidronim sifatida vujudga kelganligini va keyinchalik qishloq nomiga o‘tganligini ko‘rsatadi.

Keyingi davrlarda “jon” so‘zi o‘zbek tiliga “jom” shaklida o‘zlashib, undan bir qancha o‘zbekcha toponimlar yasalgan:

Jombuloq (G‘uzor, qishloq), Jombo‘z (Qamashi, qishloq), Jombuzsoy (Qamashi, qishloq), Jomqovoq (G‘uzor, adir) va boshqalar.

O‘zbekiston toponimlari tarkibida uchraydigan gidrografik formantlardan yana biri “xos” va uning fonetik varianti “xosh” atamasidir. Gidrografik xarakterdagi bu atama, dastlab, o‘z ma’nosiga ko‘ra gidronimlar yasash uchun xizmat qilgan. Lekin keyinchalik bu gidronimlar mazkur obyekt yaqinidagi aholi maskanlari nomlariga o‘tgan. Bu formantdan tarkib topgan toponimlar qadimgi Movarounnahrda keng tarqalgan. Uni qadimgi Sug‘d, Xorazm va Iloq (hozirgi Toshkent viloyati hududi)da uchratish mumkin bo‘lgan [6,14]. Eronshunos A.L.Xromov nemis sharqshunosi Makvartning fikriga asoslanib, -xos//xosh formantini -jon formantining sinonimi deydi [6,14]. Demak, bu formant ham “buloq”, “ariq”, “soy”, “anhor” kabi turli oqar suv havzalarini ifodalovchi atamadan kelib chiqqan.

Shahrisabz tumani hududidan oqib o‘tuvchi Tanxas daryosi nomi tarkibida shu lug‘aviy shaklning mavjudligini ko‘rish mumkin. Daryo nomi aholi o‘rtasida Tanqas, Tangqas ham deyiladi. Bu daryo arab geografi ibn Havqal asarida Asrud nomi bilan tilga olingan [1,I,188]. Tarixiy yasalishiga ko‘ra tang+xas so‘zlaridan tashkil topgan qo‘shma nom. Nazarimizda, tarkibiy tuzilishiga ko‘ra Tang+xas shaklida bo‘lgan nomning o‘rta asrlardagi As+rud nomi bilan fonetik yaqinligi bor. Bu yerda nomning asosi aslida “as” yoki “xas” so‘zi hisoblanadi. Demak, ular bir so‘zning turli ko‘rinishlari. Ehtimol, bu farq arab manbalarida noto‘g‘ri yozilishidan kelib chiqqandir. Dastlab, Asrud yoki Xasrud shaklida bo‘lgan toponim tarkibidan davr o‘tishi bilan “rud” so‘zi tushib qolib, daryoning xususiyatini ifodalovchi “tang” so‘zi qo‘shilgan bo‘lishi mumkin. Shunday qilib, u Tangxas ko‘rinishini olgan. Bu nom kelib chiqishiga ko‘ra qadimgi eroniy tillarga borib taqaladi. Nom tarkibidagi “tang” so‘zi o‘zbek tilida ham apellyativ sifatida o‘zlashganligi va hozir ham tilimizda qo‘llanganligi uchun bizga tushunarli. Lekin “xos” komponenti o‘zbek tiliga apellyativ sifatida o‘zlashmagan. Eroniy tillarga xos bo‘lgan “tan~tang” so‘zi – tor, “qas~ xos” so‘zi – soy, jilg‘a, daryocha ma’nolarini ifodalaydi. Demak, Tanxos~Tangxos~Tanqas – soy, o‘zani tor bo‘lgan daryo ma’nolarini bildiradi.

O‘zbekiston toponimlari tarkibida uchraydigan gidrografik atamalardan yana biri -ob//ov formantidir. Tarkibida bu so‘z qatnashgan nomlar dastlab asosan gidronimlar sifatida vujudga kelgan bo‘lib, keyinchalik aholi maskanlari (oykonim) va boshqa turdagi obyekt nomlariga o‘tganligini ko‘rish mumkin. “Ob” atamasidan tashkil topgan toponimlarni umumiy jihatdan eroniy tillarga tegishli deb qarash mumkin. Lekin xususiy jihatdan ularning aynan qaysi til bazasida shakllanganligini aytish qiyin. Chunki “ob” so‘zining tarqalish areali ancha keng bo‘lib, u sharqiy eroniy tillarda ham, g‘arbiy eroniy tillarda ham uchraydi. Bu so‘zdan tashkil topgan toponimlarning etimologiyasi



“ob” so‘zining etimologiyasini to‘g‘ri aniqlashga bog‘liq. Eronshunos A.L.Xromovning fikricha, tarkibida –ob komponenti bo‘lgan Movarounnahr toponimlarining bir qismi, shubhasiz, sug‘dcha hisoblanadi. Buni Mo‘g‘ tog‘idan topilgan hujjatlarda uchraydigan Zrwp toponimi hamda Isfijob, G‘andob kabi toponimlarning fonetik qiyofasi ham tasdiqlaydi [6,15].

Tarixiy manbalarda bitilgan yoki hozirda mavjud bo‘lgan -ob komponentli toponimlarning tahlili shuni ko‘rsatadiki, agar apellyativ leksika sathida “ob” leksikasi “suv” ma‘nosini ifodalasa, toponomik leksika sathida suv oquvchi obyekt, ya‘ni daryo,soy ma‘nolarini ifodalaydi.

Burob - Chag‘aniyondagi qadimgi qishloq. Chag‘aniyon (Denov) dan 4 farsax masofada bo‘lgan [1,I,124]. Qadimgi eroniy tillarga tegishli lug‘aviy birliklardan tashkil topgan nom. Bur+ob: bur~bar~par - yuqori, baland: ob - suv, daryo [5,46]. Demak, Burob~Barob~Parob - yuqoridan oqib tushadigan daryo, tog‘ daryosi. Aslida suv havzasining nomi (gidronim) bo‘lgan, keyinchalik qishloq nomi (oykonim)ga o‘tgan.

Farob – Kitob tumanida joylashgan qishloq. Kelib chiqishiga ko‘ra sug‘dcha nom. Tarixiy tuzilishiga ko‘ra far+ob so‘zlaridan tashkil topgan qo‘shma nom. Far~par~bar - yuqori, baland, ob - suv, daryo ma‘nolariga ega. Farob (arab alfavitida “p” tovushini ifodalaydigan harf bo‘lmaganligi uchun “f” harfi orqali yozilgan)<Parob<Barob - yuqoridan oqib keluvchi daryo, tog‘ daryosi ma‘nosida. Dastlab gidronim sifatida vujudga kelib, keyinchalik qishloq nomiga o‘tgan.

Yag‘nav – Yakkabog‘ tumanidagi adir nomi. Shuningdek, «Vaqfnoma”da Surxob, hozirgi Qizilsuv daryosi bo‘yida Yag‘nob mavzesi bo‘lganligi qayd etilgan [2, A75b, 287]. Yag‘nav<Yax+in+ob shaklidagi eroniy so‘zlardan tashkil topgan qo‘shma nom. Demak, yag‘~yax – sovuq, -in – xoslik, mavjudlikni bildiruvchi qo‘shimcha; ob – suv ma‘nolarini beradi. Bu nom asosan gidrografik obyekt nomi (gidronim) sifatida vujudga kelgan bo‘lib, keyin orografik obyekt nomi (oronim)ga o‘tgan. Shahrisabz tumaniga qarashli Oqsuv daryosining bosh irmog‘i va Hisor tog‘ining bir cho‘qqisi Obiyax deyiladi. Bu nomlar ham Yag‘nav toponimiga ma‘nodosh. Ularning farqi faqat nom tarkibidagi so‘zlarning bog‘lanish usulida. Yag‘nav, Farob, Tagob, G‘urjob kabi toponimlar tarkibidagi so‘zlar bitishuv yo‘li bilan to‘g‘ridan –to‘g‘ri bog‘langan; Obiyax, Obisafed, Obichashma, Obiravon kabi toponimlar tarkibidagi so‘zlar fors-tojikcha izofa yo‘li bilan bog‘langan.

O‘zbekiston toponimlari tarkibida uchraydigan gidrografik atamalardan yana biri “rud” hisoblanadi. Bu atama etimologiyasiga ko‘ra g‘arbiy eroniy tillarga mansub: fors-tojikcha *rud* “daryo”, o‘rta fors tilida *rut* “daryo”, qadimgi fors tilida *rautah* “daryo” [6,16]. Lekin Janubiy O‘zbekiston hududida mavjud bo‘lgan -rud komponentli qadimgi



toponimlar sug'dcha *rwt* "daryo" so'ziga bog'liq bo'lishi mumkin. Bu so'zdan tashkil topgan toponimlarning Eronda ko'p uchrashi va uning O'zbekiston toponimiyasida kam uchrashi ham buni tasdiqlaganday bo'ladi.

O'zbekiston tarixiy (diouxron) toponimiyasida *-rud* komponentli quyidagi toponimlar mavjud bo'lgan: Keshrud (hozirgi Qashqadaryo, uning yuqori oqimidagi tuman nomi), Asrud (hozirgi Oqsuv daryo), Surud (hozirgi Oqsuv daryosi yuqori oqimidagi yerlar), Jajrud (hozirgi To'palangdaryo), Romidrud (Kofirnihon daryosi), Xushkrud (Qizilsuv yoki Yakkabog'daryo), Xuzarrud (hozirgi G'uzordaryo), Rud (Kesh tumanlaridan birining nomi), Chag'onrud (Surxondaryo), Vexrud yoki Vaxrud (Amudaryoning qadimgi nomi), Rudi Qassabon (Kesh shahri shimolidagi anhor), Rudak (Toshkent, Salor daryosining qadimgi nomi), Rudi Zar (Buxoro, daryo) va boshqalar. O'zbekiston hozirgi (sinxron) toponimiyasida *-rud* komponentli joy nomlari saqlanib qolgan: Pushtiurdak (Boysun, qishloq - aslida Pushti rudak), Rudak (Shahrisabz, qishloq - Yakkaariq), Rudaqul (Boysun, soy), Tangruk (Sariosiyo, qishloq - aslida Tangrud).

*-rud* topoformanti orqali yasalgan toponimlar Zarafshon vodiysi hududida nisbatan ko'p tarqalgan. Qadimgi eroniy tillarda *rud* "daryo" ma'nosidagi mustaqil so'z sifatida ham keng iste'molda bo'lgan

Hozirgi tojik tilida "rud" so'zi "daryo" ma'nosidagi apellyativ sifatida qo'llanmaydi. Shuningdek, gidrografik atama sifatida ham, yangi toponimlar yasamaydi. Lekin fors tilida bundan farq qilib, "rud" hozir "daryo" ma'nosidagi mustaqil so'z sifatida ham, toponimlar yasaydigan topoformat sifatida ham keng qo'llaniladi.

Buxoro va uning atrofidagi tumanlarda "rud" so'zi uzoq vaqtga qadar "daryo", "kanal", "anhor" ma'nosidagi gidrografik atama sifatida ishlatilgan. Uning Rudi Mosaf [4, 90], Rudi Somjon [4, 97], Rudi Zar, Xarqonrud, Baykanrud, Rudi Nafar [4,111] kabi gidronimlar tarkibida uchrashi qam shundan dalolat beradi.

Zarafshon vodiysi hududida joylashgan "rud" komponentli toponimlardan Panjrud, Pasrud, Namnarud, Jirjirud kabilarni misol qilib keltirish mumkin.

Keshkrud – "Qashqadaryo" daryosi va qadimgi tuman nomi. Bu nom ayrim manbalarda Keshrud shaklida ham uchraydi. Arab geograflarining asarlarida keltirilishicha, "Keshkrud" daryosining yuqori oqimidagi yerlar Kesh viloyatining Keshkrud tumanini tashkil etgan. Bu hozirgi Qashqadaryoning qadimgi nomi. Nom tarixiy tuzilishiga ko'ra kesh+ik+rud shaklidagi qushma so'z shaklida bo'lgan. Daryo nomining kelib chiqishiga Kesh toponimi asos bo'lgan. O'rta asr tarixiy yozma manbalarida daryo nomi sifatida faqat Keshkrud yoki Keshrud nomi tilga olingan. Keshkrud nomning keyingi taqdiri hozirgi Qashqadaryo nomining kelib chiqishi bilan bog'liq bo'lishi kerak.

Rus sharqshunosi, akademik V.V.Bartold Qashqadaryo nomining kelib chiqishiga Keshkrud nomi asos bo'lgan, degan fikrni ilgari surgan [1,I,187]. Keyinchalik bu fikrni toponomist olim E.M. Murzayev ham qo'llab-quvvatlagan. E.M.Murzayevning fikricha, "Qashqadaryo" nomini hozirgi shaklda ma'nosini izohlash noto'g'ri. Uning qayd etishicha, Qashqatou (hech qanday daraxt yoki bo'toq o'smagan yalong'och tog'), Qashqaqum (biron bir butoq o'smagan taqir cho'l), Qashqaashu (o'tish qulay bo'lgan ochiq dovon) joy nomlaridagi "qashqa" so'zining ma'nosi to'g'ri. Lekin "Qashqadaryo yoki Qashqabuloq toponimlaridagi "qashqa" so'zi anglatgan ma'nosini oqlamaydi [3,223]. Toponomshunos olim H.Hasanov esa Qashqadaryo nomi "qashqa" so'zidan yasalgan degan fikrni ilgari surib, shunday yozadi: "...Qashqa degan qabila bo'lganligi ma'lum. Ammo daryoning tabiiy xususiyatida ham "qashqalik" bor: Qarshidan keyin daryo suvi kamayib qolib, o'zani ola-chalpoq – qashqa holga keladi", deydi [8, 57].

Professor T. Nafasov ham Qashqadaryo o'zbekcha nom ekanligini e'tirof etib, uni kash+ka+daryo shaklidagi yasama so'z ekanligini ta'kidlaydi. Qadimgi turkiy tilda kash – tepa, balandlik; XIII asr yodgorliklarida tog' cho'qqisi, balandlik, tizma tog'. Qashqadaryo balandlikdan, ya'ni tog'dan oqib tushuvchi daryo – tez oqar daryo tushunchasini beradi [5,241].

Yuqorida keltirilgan fikrlardan ko'rinib turibdiki, daryo nomining kelib chiqishi yuzasidan ikki xil qarash mavjud. Bizning fikrimizcha Qashqadaryo nomi tarixiy Keshkrud nomining davr o'tishi bilan fonetik o'zgarishga uchragan shakli. Ma'lumki, hozirgi o'zbek tilida "daryo" tushunchasi qadimda *rud,ob*, keyinchalik *daryo* atamasi orqali ifodalangan. Arab sayyohi Yoqut asarida Kashaf viloyati nomi tilga olingan. Bu Kashob toponimining o'zgargan shakli. Kashob va Keshrud bir daryoning nomi. Demak, daryo nomi ma'lum bir davr oralig'ida Keshkrud<Keshrud<Kashob~Kashof shakllarida o'zgarib borgan. Keyinchalik, *rud* va *ob* atamasining o'rnini *daryo* atamasi egallagan. Daryo atamasining qo'llanishi *kesh* atamasining ham qiyofasini o'zgarishiga olib kelgan. Albatta, Keshkrud so'zining fonetik o'zgarishga uchrashi bosqichlari to'g'risida manbalarda ma'lumotlar yo'q.

## XULOSA

Yuqorida keltirilgan tahlillardan ko'rinadiki, tarkibida *jon, xos, ob, rud* kabi arxaik gidrografik atamalar qatnashgan toponimlar dastlab gidronimlar sifatida vujudga kelgan, keyinchalik ular toponimlarning boshqa turlari, xususan, oronimlar va oykonimlarga o'tgan. Chastotasiga ko'ra bu xususiyat aholi maskanlari nomlari, ya'ni oykonimlarda keng tarqalgan.

**REFERENCES**

1. Bartold V.V. Sochineniya. – Moskva: Nauka T. I,1963-759 c., TII. ch. 1 – 1963. – 1020 s., TIII, -1955.-711s.
2. Mukminova R. G. K istorii agrarnykh otnosheniy v Uzbekistane XU1 v. Po materialam «Vakf-name». T., 1966.
3. Murzayev E.M. Ocherki toponimiki. - Moskva: Мысль, 1974. - 382 s.
4. Narshaxiy. Buxoro tarixi // Meros. T.1991.-B. 82-174.
5. Nafasov T. O‘zbekiston toponimiyalarining izohli lug‘ati . –T.: O‘qituvchi, 1988.- 290 b.
6. Хромов А.Л. О структурных особенностях иранской топонимии Мавераннахра в период IX-XIII vv.// Vostochnaya filologiya.- Dushanbe, 1974. Выр. Z.-s. 3-25.
7. Chexovich O.D. Samarkandskiye dokumenty XU-XU11 vv.: O vladeniyaх Ходжа Axrara v Sredney Azii i Afganistana // Pamyatniki pismennosti Vostoka, вып. 31. – М.: Nauka, 1974. – 631 s.
8. Hasanov H. O‘rta Osiyo joy nomlari tarixidan. T.: Fan,1965. -83 b.

